MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISHDA MEDIATEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH ASOSIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Xaydarova Sevara Sobirjon qizi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.22878060

Annotatsiya. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish sifatini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur tezisda oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida mediatexnologiyalarni integratsiya qilish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi yoritiladi. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda mediatexnologiyalardan (multimedia taqdimotlar, video-audio materiallar, interaktiv platformalar, virtual va kengaytirilgan reallik vositalari, elektron ta'lim resurslari) foydalanish talabalarda nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirish jarayonini tezlashtirish. Tezisda multimedia materiallari, videodarsliklar, interaktiv ta'lim resurslari, vizual modellar, raqamli taqdimotlar hamda muammoli-kasbiy vaziyatlardan foydalanish asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik bosqichlari ishlab chiqildi.

Abstract. Improving the quality of students' professional competencies in the modern higher education system is one of the pressing issues. This thesis discusses the issue of developing students' professional competencies through the integration of media technologies in the process of teaching specialized subjects in higher educational institutions. The use of media technologies (multimedia presentations, video-audio materials, interactive platforms, virtual and augmented reality tools, electronic educational resources) in teaching specialized subjects accelerates the process of transforming theoretical knowledge into practical skills in students. The thesis develops methodological stages of developing students' professional competencies based on the use of multimedia materials, video tutorials, interactive educational resources, visual models, digital presentations, and problem-based professional situations.

Аннотация. Повышение качества профессиональной компетентности студентов в современной системе высшего образования является одной из актуальных проблем. В данной работе рассматривается вопрос развития профессиональной компетентности студентов посредством интеграции медиатехнологий в процесс обучения специализированным дисциплинам в высших учебных заведениях. Использование медиатехнологий (мультимедийные презентации, видео-аудиоматериалы, интерактивные платформы, инструменты виртуальной и дополненной реальности, электронные образовательные ресурсы) в обучении специализированным дисциплинам ускоряет процесс преобразования теоретических знаний в практические навыки у студентов. В работе разработаны методические этапы развития профессиональной компетентности студентов на основе использования мультимедийных материалов, видеоуроков, интерактивных образовательных ресурсов, визуальных моделей, цифровых презентаций и проблемно-ориентированных профессиональных ситуаций.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Kalit so'zlar: mutaxassislik fanlari, mediatexnologiyalar, integratsiya, kasbiy kompetensiya, metodika, multimedia, interaktiv ta'lim, raqamli ta'lim resurslari, kasbiy faoliyat, oliy ta'lim.

Keywords: specialized disciplines, media technologies, integration, professional competence, methodology, multimedia, interactive education, digital educational resources, professional activity, higher education.

Ключевые слова: специализированные дисциплины, медиатехнологии, интеграция, профессиональная компетентность, методология, мультимедиа, интерактивное образование, цифровые образовательные ресурсы, профессиональная деятельность, высшее образование.

Kirish

Bugungi kunda oliy ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan biri – nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtira oladigan, mustaqil fikrlaydigan va kasbiy vaziyatlarda samarali qaror qabul qila oladigan kompetent mutaxassislarni tayyorlashdir. Ushbu vazifani amalga oshirishda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasini zamonaviy pedagogik vositalar asosida takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mediatexnologiyalarning ta'lim jarayoniga jadal kirib kelishi mutaxassislik fanlarini o'qitish mazmuni va metodlarini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Bunda asosiy masala mediatexnologiyalarning mavjudligi emas, balki ularni o'quv jarayoniga maqsadli va metodik jihatdan asoslangan holda integratsiyalashdan iborat. Raqamli texnologiyalar rivoji ta'lim tizimiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Multimedia vositalari, virtual platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari, elektron resurslar va sun'iy intellektga asoslangan dasturlar o'quv jarayonini interaktiv, samarali va talaba markazlashgan shaklga keltirmoqda. Zamonaviy mehnat bozori mutaxassislardan nafaqat kasbiy bilim, balki xalqaro kommunikativ kompetensiya, axborotni tahlil qilish, raqamli vositalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini ham talab etmoqda. Pedagogik ahamiyatlari mediatexnologiyalar yordamida pedagoglar darsni qiziqarli va samarali o'tkazishi, talaba mustaqilligini oshirishi, differensial yondashuvni qo'llashi, talabaning tanqidiy fikrlash va kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirishi orqali namoyon bo'ladi. Mediatexnologiyalar zamonaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, u interfaol, individual va samarali ta'limni ta'minlaydi.

Tadqiqotning maqsadi- mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida mediatexnologiyalarni tizimli integratsiyalash orqali orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur integratsiyaning asosiy maqsadi talabaning media materialni shunchaki tomosha qilishi yoki tayyor axborotni qabul qilishi emas, balki media axborot asosida kasbiy vazifani bajarishini ta'minlashdan iborat. Ushbu metod talabaning nafaqat o'quv materialini o'zlashtirishi, balki mediatexnologiyalardan foydalanib kasbiy vazifani bajarish darajasini ham baholaydi. Bunda bilimni amaliyotga tatbiq etish, muammoni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va o'z fikrini asoslash kabi mezonlardan foydalanish mumkin.

Media content → tahlil-muammoli vaziyat → kasbiy topshiriq → amaliy faoliyat → refleksiya → baholash

Mazkur tizimning afzalligi shundaki, media vositasi darsning alohida elementi bo'lib qolmaydi, balki ta'lim mazmuni va talabaning kasbiy faoliyatini bog'lovchi **metodik mexanizm** vazifasini bajaradi. Bunda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini bir necha yo'nalishda rivojlantirish mumkin. Jumladan, kognitiv kompetensiya kasbiy axborotni izlash va tahlil qilish orqali, amaliy kompetensiya

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

olingan bilimlarni vaziyatlarda qo'llash orqali, kommunikativ kompetensiya guruhli muhokama va taqdimotlar orqali, refleksiv kompetensiya esa o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish orqali shakllantiriladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mutaxassislik fanlarini o'qitishda mediatexnologiyalarni integratsiyalash talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun keng metodik imkoniyatlar yaratadi. Taklif etilayotgan "**media content → tahlil-muammoli vaziyat → kasbiy topshiriq → amaliy faoliyat → refleksiya"** modeli talabaning nazariy bilimlarini amaliy kasbiy faoliyat bilan bog'lashga xizmat qiladi. Mazkur metodika talabalarning kasbiy axborot bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish va o'z faoliyatini baholash kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Demak, mediatexnologiyalar mutaxassislik fanlariga metodik jihatdan asoslangan holda integratsiyalash zamonaviy oliy ta'limda kasbiy kompetent mutaxassis tayyorlashning muhim pedagogik shartlaridan biri sifatoda qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimov SH. H. Zamonaviy sifatli ta'lim platformalari va ulardan til o'rganishda samarali foydalanish strategiyalari. – Namangan, 2023yil.
2. Ahmedov M.M. Oliy ta'limda kredit modul tizimi va GPA reytingini bashqarishning elektron tizimlari.- Buxoro, 2023 yil.
3. Bozorova R.SH. Talabalarning mediasavodhonligi va tanqidiy firklash qobiliyatini rivojlantirishning uslubiy asoslari. – Qarshi, 2025 yil.
4. Ergashev J. B. Oliy ta'lim muassasalarida mutahassislik fanlarini CLIL (Til va mazmun integratsiyasi) texnologiyasi asosida o'qitish. – Toshkent, 2023 yil.
5. Karimov A.A. Chet tillarini o'qitishda multimedia dasturlaridan foydalanish usullari. – Samarqand, 2022 yil.
6. Karimov S.A. Raqamli transformatsiya sharoitida pedagoglarning hisoblash va mediakomponentligini aniqlash modellari. – Nukus, 2025 yil.
7. Kodirova N.A. Talabalarning mustaqil ta'lim hosil qilishida Wordwall va Kahoot kabi o'yinli texnologiyalarni yaratish. – Termiz, 2024 yil.
8. Stockwell G. Mobile learning in language education.- 2015.
9. Kariroom M., Hockly N. Raqamli savodxonlik (Til o'qitishda tadqiqotlar va resurslar). – Routledge, 2022.
10. Kukulska-Hulme A. Mobil yordamchi til o'rganish: tushunchalar, mediatexnologiyalar, vositalar va ilovalar.- IGI Global, 2021.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.